

DIALEKTIZMLARNING USLUBIY XUSUSIYATLARI

Obidjonov Xojimurod Xudoyberdi o'g'li

Andijon davlat universiteti

Filologiya fakulteti II bosqich talabasi

Anotatsiya: ushbu maqolada dialektizmlarning uslubiy xususiyatlari haqida ma'lumotlar berilgan. Shuningdek, dialektizmning adabiy tilning bir-biridan farqi ham ko'rsatib o'tilgan.

Kalit so'zlar: sheva, dialekt, leksika, dialektologik va areologik muammolar.

Ma'lumki, shevalar har bir milliy tilning asosini tashkil etadi va milliy-ma'naviy qadriyatlardan biri hisoblanadi. O'zbek shevalarini o'rganishda shevalarga xos xususiyatlarni birgina tasviriy-tavsifiy jihatdan emas, balki aniq tarixiy-etimologik turkiy va boshqa tillarning faktik elementlari asosida qiyosan tadqiq qilinishi va shu nuqtayi nazaridan baholanishi ko'plab tarixiy-lingvistik, dialektologik, lingvogeografik, areaologik va hozirgi adabiy tildagi nazariy va amaliy muammolarning yechimini topishda juda katta yordam beradi [3,16].

Til leksik tizimining o'zgarib, rivojlanib borishi uning ijtimoiy hodisa ekanligidan dalolat beradi. Har qanday xalq tarixiy davrlar mobaynida boshqa xalqlar bilan iqtisodiy, siyosiy va madaniy aloqaga kirishishi natijasida uning leksik fondi ma'lum bir o'zgarishlarga uchraydi. Tillarning bir-biriga o'zaro ta'siri orqali tilning barcha bo'limlarida: fonetika, leksika, grammatika kabilarda o'zgarishlar yuz berishi tabiiy. Turkiy tillar, xususan, o'zbek tili va uning shevalarida ham ana shunday jarayonlarni kuzatishimiz mumkin. O'zbek tilining, jumladan, shevalarning ham umumiy so'z boyligining asosiy qismini turkiy so'zlar tashkil qilsa-da, ularda qarindosh va qarindosh bo'lmagan tillardan o'zlashgan leksik birliklar ham salmoqlidir.

O'zbek tilining dialektal qatlami nihoyatda murakkab va rang-barang bo'lib, u o'z ichiga bir qancha sheva va dialektlarni qamrab oladi. Bu sheva va dialektlarning har biri o'ziga xos fonetik, leksik-grammatik xususiyatlari bilan adabiy tildan o'zaro farqlanadi.

O'zbek tili boshqa turkiy tillardan ko'p shevaliligi bilan farqlanadi. O'tgan tarixiy davr ichida o'zbek shevalari to'xtovsiz taraqqiy etdi. Uning taraqqiyot tarixi va hozirgi davrini tushunish va izohlashda sheva, dialekt degan terminlar qo'llanadiki, ularning lug'aviy va terminologik ma'nolarini bilish, albatta, zarur.

Sheva forscha ravish, tarz, yo'sin degan ma'nolarni bildirib, fanda o'ziga xos leksik, fonetik va grammatik xususiyatlari bilan farqlanib turadigan milliy (xalq) tilning kichik territoriyaga oid qismini anglatadi [4,4].

Dialekt so'zi yunoncha bo'lib, sheva degan ma'noni anglatib (aslida qabila tili demakdir), aksariyat til xususiyatlari o'xshash bo'lgan shevalarni birlashtiradi [4,5].

Har bir tilning shevalarini o'rganuvchi fan tasviriy dialektologiya deb yuritiladi. O'zbek dialektologiyasi hozir tasviriy dialektologiya bosqichidadir. Bu fan boshqa fanlarni, shu jumladan, til tarixini o'rganishda zaruriy manba ekanligini hisobga olsak, bu jarayonda tarixiy dialektologiya to'g'risida ham fikr yuritish lozim bo'ladi. Tilning rivojlanishi ayni o'rinda shevalarning ham tarixiy rivojlanishi hisoblanadi. Bu esa tarixiy dialektologiya tekshirish obyekti. O'zbek tilshunosligida tarixiy dialektologiya endigina shakllanib kelmoqda [4,4].

Dialektizmlarning adabiy tildan farqi, avvalo, so'zning talaffuzida ko'rinadi. Masalan, *gurgurt-gugurt*, *bala-bola*, *yuzum-uzum*, *yig'namoq-yig'moq* kabi. Bundan tashqari adabiy tilga nisbatan dialektizmlarning lug'at tarkibi birmuncha o'zgacharoqdir. Chunonchi, mahalliy dialektizmlar lug'atida fan, san'at va murakkab texnikaga oid maxsus atamalar kam, deyarli yo'q bo'ladi, dialektlardagi ba'zi so'zlar esa adabiy tilda butunlay bo'lmasligi mumkin. Bunday so'zlar shu dialekt vakillari nutqida ishlatiladi. Masalan, *varray* (Toshkent dialektida), *bodpark* (Buxoro dialektida), *shohin* (Samarqand dialektida), *bodrak* (Xorazm dialektida) kabi. Umuman olganda, "...hech bir til, uning sheva yoki lahjasi yo'qki, ularning tarkibida boshqa tillardan kirgan so'zlar bo'lmasa. Chunki so'z olish til hayotining zaruriy ehtiyojlaridan biri hisoblanadi" [2,46].

Adabiy tilning ayrim dialektlar lug'aviy birliklari hisobiga boyib borishi tillar taraqqiyotida qonuniy bir holatdir. Hozirgi adabiy nutq lug'atining bir qismi ham aslida dialektlarga mansub bo'lsa-da, adabiy nutqqa xos, deb qaralishining sababi bunday lug'aviy birliklarning umumlashib ketganligidadir. Dialektizmlarni quyidagi holatlarda adabiy nutqqa olib kirish mumkin: agar u yoki bu mahalliy tushuncha umumtilda aniq nomga ega bo'lmasa yoki uning shevadagi atamasi leksik ma'no ottenkasi bilan, uslubiy bo'yog'i bilan umumtildagi so'zdan farqlanib tursa, uning adabiy nutqqa kirishi to'g'ridir.

Biror dialektal so'zning adabiy nutqqa ko'chish hodisasi bilan dialektal so'zlarning badiiy asarda ishlatilishi hodisasini bir-biridan farqlash zarur. Yozuvchilar o'z asarlarida hayotning realistik tasvirini chizish, mahalliy koloritni berish, personajlar nutqini individuallashtirish yoki biror tushunchaning shevadagi atamasi kitobxonga ahamiyatli bo'lgan holatning ma'lum mahalliy belgisini bildirsagina dialektal so'zlardan foydalanishlari mumkin. Sheva so'zlarining mana shunday vazifalarda ishlatilganini A.Qahhorning "O'tmishdan ertaklar" nomli sarguzasht qissasidan olingan parchada kuzatish mumkin: *"...tor ko'prikning ustida bo'riq yotgan ekan, shuni tepib zovurga tushirmoqchi bo'lganimda ikkala oyog'im ko'tarilib ketdi shekili, yiqildim, zovurga tushib ketdim. ...Anhor ko'prigidan oyog'imni osiltirib o'tirib, pesa eb o'tirganimda birdan ko'nglim to'ldi-yu, ko'kragimdan yig'i o'rniga bir kuy otilib chiqdi"*.

Har qanday adabiy tilning taraqqiyoti, boyishi adabiy til bilan shevalar o'rtasidagi munosabatlarning bir-biriga ta'sir qilish darajasiga bog'liq. Shuning uchun dialektizmlarning badiiy asarda qo'llanilishini hamda ularning adabiy tilga o'tish-o'tmasligini konkret tarixiy sharoitlarga ko'ra izohlash zarur. Madaniy hayotimizda adabiy tilning mavqeyi, ta'siri kuchayib borgan sari ayrim sheva so'zlari va iboralarining qo'llanishi doirasi ham zaiflasha va yo'qola borishi tabiiydir.

Adabiy tilning badiiy va ilmiy-uslubiy adabiyotlarda mustahkamlanib borishi natijasida asta-sekin til normasi ham qat'iy tus ola bordi. Yozma adabiyot normaning takomillashtirilishiga yordam beradi. Darhaqiqat, me'yor milliy tilning sofligini ta'minlaydi. Chunki u dialektlarning o'zaro munosabati bilan, tillararo ta'siri bilan bog'liq holda mavjud bo'lgan xilma-xil ikkilanishlarni yo'qotadi [1,189].

Mashhur so'z ustalari til haqidagi maqolalarida tushunib bo'lmaydigan mahalliy sheva so'zlariga o'z munosabatini bildirar ekan, tilni ortiqcha, g'alati so'z chiqindilari bilan to'ldirib yubormaslikni qat'iy talab qilgan edilar. Ammo bundan mahalliy sheva so'zlarini ishlatmaslik kerak, degan ma'no kelib chiqmaydi. Sheva so'zlari asarda o'z joyini topgan bo'lsa, tilni boyitishga xizmat qilsa, uni adabiy tildagi so'z bilan almashtirish qiyin bo'lsa yoki iloji bo'lmasa qo'llash mumkin.

Xulosa qilib shuni ta'kidlash lozimki, o'zbek shevalari hozirgi adabiy tilda uchramaydigan ayrim grammatik shakllar, leksik birlik elementlarini saqlab qolganki, ularni asosli ravishda ilmiy o'rganish juda muhim tarixiy-lingvistik xulosalarni chiqarishga imkon tug'diradi. Yaratilajak yangi qarash va ilmiy nazariyalarning maydonga kelishiga poydevor bo'ladi. Qat'iy bir qonuniyat asosida tilning uzoq zamonlardagi holatini aniqlayotgan izlanuvchiga juda qimmatli material beruvchi maba bo'lishi shubhasiz va shu bilan bir qatorda, bunday fonetik, leksik-grammagik faktlar – asoslar qadimgi yodgorliklarni tushunish va lingvistik tahlil qilishda amaliy qo'llanma vositasi vazifasini ado etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Muhiddinova X., Xudayberganova D va boshqalar. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent.: O'qituvchi. 2006. 189-bet.
2. Allaberdiyev A. Buxoro o'g'uz shevalarida forsha va tojikcha leksik birliklar// O'zbek tili va adabiyoti. 2013-yil 3-son.
3. O'zbek tilining izohli lug'ati. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. – Toshkent. 2005. 2-jild.
4. Ashirboyev S. O'zbek dialektologiyasi. – Toshkent.: Navro'z. 2016.